

**ILDIZNING BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI ANATOMIK TUZILISHNING
ÓZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ERGASHEVA GULCHIROY RÓZIMAMATqizi .
ABDUVOHIDDOVA MARJONA ABDUSALIM qizi.**

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi talabalari

Аннотация: В данной статье представлена информация об уникальных особенностях первичного и вторичного анатомического строения корня. Растения делятся на стержневые и боковые корни. Первичная кора состоит из эктодермы, экзодермы и мезодермы. Поскольку у однодольных нет вторичного камбия и феллогена, первичная структура не сохраняется до конца жизни корня.

Ключение слова: Корень, первичный корень, вторичный корень, корень, пупочный корень, ктодерма, энтодерма и мезодерма.

Annotation: This thesis provides information about the specific features of the primary and secondary anatomical structure of the root. Plants are divided into taproot and lateral roots. The primary cortex consists of ectoderm, exoderm, and mesoderm. Since monocots do not have secondary cambium and phellogen, the primary structure is not preserved throughout the life of the root.

Key words: Root, primary root, secondary root, shoot, ectoderm, endoderm and mesoderm in the root.

Ildizning birlamchi anatomik tuzilishi. O‘simliklar ildiz tizimida o‘q ildiz, yon ildiz va popuk ildizlar bo‘ladi. Ildizning o‘sish nuqtasidagi meristema hujayralardan hosil bo‘lgan to‘qimalarning hammasi ildizning birlamchi anatomik tuzilishini tashkil qiladi. Birlamchi po‘stloq quyidagi qismlardan iborat: ekzoderma, mezoderma, endoderma. Ekzoderma- po‘stloqning tashqi qavati bo‘lib, uning ikki va undan ortiq qatlamini, bir - biriga zinch joylashgan hujayralar tashkil qiladi. Epiderma- nobud bo‘lishi bilan ekzoderma hujayralari po‘sti po‘kakka aylanadi. Shundan boshlab ekzoderma to‘liq himoya vazifasini bajaradi. Mezoderma-ekzodermaning ichki tomonida joylashgan bo‘lib, yupqa sellyuloza devorli tirik parenximatik hujayralardan iborat bo‘ladi. Ekzodermaga yaqin joylashgan hujayralar ancha mayda, o‘rta

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

qismidagilar yirik va hujayralar aro bo'shliqlar mavjud. Endodermaga yaqin qismidagi hujayralar yanada mayda va zich joylashgan bo'ladi.

Ildizning ikkilamchi tuzilishi. Paporotniksimonlar va bir pallali o'simliklar ildizida ikkilamchi kambiy va fellogen bo'limgani uchun birlamchi tuzilish ildizlar umrining oxirigacha saqlanib qoladi. Ochiqurug'lilar va ikkipallalilar ildizida kambiy kselema va floema orasidagi guruh-guruh ko'rinishida hosil bo'ladi va ichkariga ikkilamchi ksilemani, tashqariga ikkilamchi floemanı beradi. Barcha ochiq urug'Iar va ikkipallalilar ildizlari ikkilamchi yo'g'onlashish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi: ingichka qisqa umrli ildizlar umrining oxirigacha kambiy sizz bo'ladi. Ksilema va floema orasidagi kambiy guruhlari oldin o'zaro tutashmagan bo'ladi, lekin tez orada protoksilema nurlari qarshisidagi perisikl hujayralari tangental bo'linadi va kambiyning uzlusiz qavatini hosil qiladi hamda birlamchi ksilemani o'rabi oladi. Perisikldan hosil qilgan kambiy qismlari parenxima hujayrasidan hosil bo'lib, ular o'tkazuvchi to'qimalar elementlarini emas, balki birlamchi nurlar parenximasini beradi.

Apika (uchki) meri temaning nozik hujayralari tirik qin bilan himoyalangan. Faqat onda-sondagina ba'zi suv simliklari va parazit o'simliklarda qin hosil bo'lmaydi. Qin tirik hujayralardan tuzilgan bo'lib, doim yangilanib turadi. Ustki yuzasidagi qari hujayralar yemirilib ketaveradi, ichki tomondan apikal meristema yangi yosh hujayralarni ajrati beraveradi.

Qinning markaziy qismi (o'qi) kolumella (ustuncha) deb atalib, uning hujayralarida ko'p miqdorda kraxmal donachalari donachalari - statolitik ya'ni Ildiz uchining fazada o'zgarishiga qarab o'mini almashtiradi, buning natijasida ildiz egilib, yana oldingi yo'nalish bo'yicha o'saveradi.

Qin ostida (ustida) bo'linish zonasini joylashgan bo'lib, uning hujayralari meristemmatik xususiyatga ega Barcha bo'linayotgan hujayralar aynan mana shu uzunligi 1 mm. dan ortiq bo'limgan zonada joylashgan.

O'sish zonasmmg uchki tomonidagi hujayralar o'sishdan to'xtaydi va tuproqqa kirib borrnaydi Endi rizodermada ko'p sonli ildiz tuklari hosil bo'ladi va tuproq zarrachalarini qattiq o'rabi oladi. rizoderma hujayralari bilan nobud ho'ladi. Rizodermaning o'rniga boshqa qoplovchi to'qima - ekzoderma hosil bo'lib, o'tkazuvchi zonadagi tirik to'qimalarni himoyalaydi .

Asosiy ildiz embrion ildizchasidan hosil bo'ladi . O'simliklar ildiz tizimida o'q ildiz, yon ildiz va popuk ildizlar bo'ladi. Birlamchi po'stloq quyidagi qismlardan iborat:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ekzoderma, mezoderma, endoderma. Barcha ochiq urug'Iar va ikkipallalilar ildizlari ikkilamchi yo'g'onlashish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi: ingichka qisqa umrli ildizlar umrining oxirigacha kambiysiz bo'lad .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DARIYEV A.S Botanika o'simliklar anatomiyasi .Toshkent "Ilm ziyo"-2012. 330-bet.
2. O.Potatov.Botanika.Toshkent " Ta'lif nashriyoti"-2010 290- bet.

Veb saytlar

1. www. Arxiv.uz
2. www. Wikipedia



Research Science and Innovation House